

«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI
UMUMIY YIG'ILISHINING BAYONNOMASIDAN
KO'CHIRMA

2025-yil 20-oktabr

№ 5

Toshkent shahri

Soat: 11-00

Shaxrisabz ko'chasi, 2-uy

...

...

...

KUN TARTIBI

1. Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. Bankning Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.
4. Bankning yangi faoliyatini yo'lga qo'yish va ushbu faoliyat yuzasidan yangi kollegial organi tashkil etish.
5. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi a'zolarini saylash.
6. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.
7. Bankning ichki qoidalarini to'plamini tasdiqlash.
8. Bankning affillangan shaxslar ro'yxatini tasdiqlash.

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha:

1. Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **birinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

1. Bankning sanoq komissiyasi a'zolari soni uch kishidan iborat bo'lsin va quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

Napasov Bunyodbek Rashidbek o'g'li - "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Yuridik boshqarmasi bo'lim boshlig'i, komissiya raisi;

Xaitboyev Bunyod Baxtiyor o'g'li - "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Tashqi iqtisodiy faoliyat boshqarmasi bo'lim boshlig'i, komissiya a'zosi;

Salomov Sardor Fozil o'g'li - "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Korporativ biznes boshqarmasi bosh menejeri, komissiya a'zosi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha:

2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.

...
...
...

Kun tartibidagi **ikkinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

2. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamenti tasdiqlansin va u quyidagi tartibda tashkil etilsin:

ma'ruzalar uchun 15 daqiqagacha vaqt ajratilishi;

muhokama va muzokaralar, shuningdek ovoz berish uchun 5 daqiqagacha vaqt ajratilishi.

Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha:

3. Bankning Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

...
...
...

Kun tartibidagi **uchinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

3. Bank Ustaviga 1-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

Kun tartibidagi to'rtinchi va beshinchi masalalar bo'yicha:

4. Bankning yangi faoliyatini yo'lga qo'yish va ushbu faoliyat yuzasidan yangi kollegial organni tashkil etish.

5. Bankning tashkil etiladigan yangi kollegial organi a'zolarini saylash.

...
...
...

Kun tartibidagi **to'rtinchi va beshinchi masalalar** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

4. Kun tartibidagi to'rtinchi masala O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi kutilgan holda keyingi Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga qoldirilsin.

5. Kun tartibidagi beshinchi masala O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi kutilgan holda keyingi Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga qoldirilsin.

Kun tartibidagi oltinchi masala bo'yicha:

6. Bankning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

...
...
...

Kun tartibidagi **oltinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

6. Bank Boshqaruv raisining bankning IT sohasi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha hisoboti (2-ilova) ma'qullansin va ushbu hisobotdan kelib chiqib bankning tashkiliy tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi yettinchi masala bo'yicha:

7. Bankning ichki qoidalari to'plamini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **yettinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

7.1. Bankning ichki qoidalari to'plami 4-13-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

7.2. Bankning ushbu ichki qoidalari tasdiqlanishi munosabati bilan 14-ilovaga muvofiq ushbu ichki qoidalarining eski tahriri o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

Kun tartibidagi sakkizinchi masala bo'yicha:

8. Bankning affillangan shaxslar ro'yxatini tasdiqlash.

...

...

...

Kun tartibidagi **sakkizinchi masala** bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishi **qaror qiladi:**

8. Bankning affillangan shaxslar ro'yxati 15-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

...

...


...

Yig'ilish raisi

imzo

G.Oziyev

Ko'chirma asliga to'g'ri:

 T.Nurmuratov

